

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

SOME ASPECTS OF THE RENUNCIATION OF PROPERTY RIGHTS

Xodjiyev Yunus Muxitdinovich,

PhD, Associated professor of private law at TSUL

Abstract. This article analyzes certain issues of renunciation of property rights as one of the grounds for termination of property rights. The article examines the legal nature of renunciation of property rights, its qualification as a unilateral transaction, and the requirements for its form. Special attention is paid to the difference between renunciation of movable and immovable property, as well as the moment of termination of property rights. The article substantiates that the termination of property rights as a result of renunciation requires a complex legal composition consisting of the owner's renunciation and the acquisition of property rights by another person.

Keywords: property right, renunciation of property rights, termination of property rights, unilateral transaction, movable property, immovable property, legal composition, derelictio.

MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI

Xodjiev Yunus Muxitdinovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Fuqarolik huquqi” kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada mulk huquqini bekor qilishning asoslaridan biri sifatida mulk huquqidan voz kechishning ayrim masalalari tahlil qilingan. Maqolada mulk huquqidan voz kechishning huquqiy tabiati, uni bir tomonlama bitim sifatida kvalifikatsiya qilish hamda uning shakliga qo'yiladigan talablar ko'rib chiqilgan. Ko'char va ko'chmas mulkdan voz kechish o'rtasidagi farq hamda mulk huquqining tugash paytiga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada voz kechish natijasida mulk huquqining tugashi mulkdorning voz kechishi va boshqa shaxs tomonidan mulk huquqini egallashidan iborat murakkab huquqiy tarkibni talab qilishi asoslangan.

Kalit so'zlar: mulk huquqi, mulk huquqidan voz kechish, mulk huquqini bekor qilish, bir tomonlama bitim, ko'char mulk, ko'chmas mulk, huquqiy tarkib, derelictio.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N44>

Kirish. Amaldagi fuqarolik kodeksining 197-moddasida mulk huquqi mulkdorning ixtiyoriy suratda majburiyatni bajarishi, mulkdorning mol-mulk taqdirini hal qiladigan bir tomonlama qaror qabul qilishi, sud qarori asosida mol-mulkni olib qo'yish (sotib olish) yo'li bilan, shuningdek mulk huquqini qonun asosida bekor qiluvchi qonunchilik hujjatiga asosan bekor bo'lishi nazarda tutilgan. Biroq, mulkdorning mulkdan voz kechishi orqali mulk huquqining bekor bo'lishi asoslari keltirilmagan. Mulkdorlar tomonidan mulkdan voz kechish orqali ham mulk huquqini bekor qilishlari mumkin. Mulkdan voz kechish mulkdorlar tomonidan aniq harakatlarni amalga oshirish orqali amalga oshiriladi.

Rossiya Federatsiyasi FKning 236-moddasida mulk huquqini bekor qilishning asoslaridan biri sifatida mulk huquqidan voz kechish nazarda tutilgan. Fuqaro yoki yuridik shaxs o'z mulkiga bo'lgan mulk huquqidan voz kechishi mumkin, buning uchun u buni e'lon qilishi yoki mulkni egallash, foydalanish va boshqarishdan voz kechishini aniq ko'rsatadigan

boshqa harakatlarni amalga oshirishi lozim, shu bilan birga ushbu mulkka nisbatan hech qanday huquqni saqlab qolish niyati bo'lmagligi kerak.

Mulk egasining voz kechishi (derelictio) mulk huquqini tugatish asosi sifatida hatto Rim huquqida ham ma'lum bo'lgan. Mulk egasi uni boshqa shaxsga o'tkazmasdan, bir tomonlama ixtiyoriy ravishda mulk huquqidan voz kechsa va buyumni tashlab, egalikni to'xtatsa, mulk huquqi yo'qolgan hisoblanardi. Bunday buyum (res nullius)ga aylanib, egallash (occupatio) orqali qo'lga kiritilishi mumkin edi. Derelictio "nemini jura obtruduntur" tamoyiliga asoslangan edi (fuqarolik huquqlari majburan yuklatilmaydi, har bir kishi o'z huquqidan istalgan vaqtda voz kechishi mumkin). Buyumni tashlash agar bu mulk huquqini bekor qilishga qaratilgan bo'lsa, derelictio deb tan olinardi. Shuning uchun, mulk egasining bunday niyati bo'lmasa, masalan, buyum majburiy ravishda tashlangan bo'lsa — yo'qolgan yoki bo'ron paytida kemadan uloqtirilgan buyumlar mulk huquqi bekor bo'lmagan Derelictio niyati hech qachon taxmin qilinmas, balki faktlar bilan tasdiqlanishi kerak edi [1, 248-249 b.]. Rim huquqida mulk egasining voz kechishi mulk huquqini bekor qilishning mustaqil asosi bo'lgan, chunki egasiz buyumlarning mavjudligi ruxsat etilgan shuning uchun, agar bir shaxs mulk huquqidan voz kechsa, darhol boshqa shaxsga ushbu buyumga nisbatan mulk huquqi paydo bo'lmaydi, balki u faqat egallash (occupatio) orqali hosil bo'ladi [2, 209-210 b.].

Yuridik adabiyotlarda mulk huquqidan voz kechishni mulk huquqini bekor qilish asosi sifatida o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar mavjud emas. Faqat ayrim ishlarda bir tomonlama bitimlar doirasida voz kechish masalasi ham ko'rib chiqiladi. Natijada, mulkdan voz kechish yetarlicha o'rganilmagan. Shu bilan birga, uning batafsil tahlili juda dolzarb hisoblanadi. Kundalik hayot buyumlariga mulk huquqidan voz kechish keng tarqalgan. Kamroq bo'lsa-da, ko'chmas mulkka mulk huquqidan voz kechish holatlari ham mavjud. Amaliyotda cheklangan ashyoviy huquqlarga (operativ boshqarish) voz kechish keng tarqalgan bo'lib, ularga FK 181-modda 3-qismiga muvofiq mulk huquqini tugatish normalari tatbiq etiladi. Bularning barchasi mulk huquqidan voz kechish institutini o'rganishning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

Mulk egasi tomonidan mulkdan voz kechishining huquqiy tabiati masalasi katta ilmiy qiziqish uyg'otadi va amaliy ahamiyatga ham ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ustunlik qiluvchi nuqtai nazarga ko'ra, mulk huquqidan voz kechish bir tomonlama bitim hisoblanadi. Shu bois, Yu.K. Tolstoy fikricha, mulk egasi o'ziga tegishli buyumni tashlashi, agar bu buyumni yo'q qilish bilan bog'liq bo'lmasa, bir tomonlama bitim orqali mulk huquqini amalga oshirish sifatida baholanishi lozim [3, 191 b.].

Doktrinada murakkab huquqiy tarkibga kiruvchi har bir elementning ahamiyati bo'yicha yagona fikr yo'q. O.A. Krasavchikov huquqiy norma bilan belgilangan oqibat faqat tarkibga kiruvchi barcha elementlar to'liq yig'ilgan holatda yuzaga kelishini tan olgan [4, 67 b.].

K.I. Sklovskiyning to'g'ri ta'kidlashicha, "har bir ashyoning o'z mulkdori bo'lishi lozim" degan tamoyil mulkdorning o'zi istagiga ko'ra bekor qilinishi mumkin emas [5, 202 b.].

Biroq boshqa bir nuqtai nazar mavjud bo'lib, unga ko'ra, mulk egasi buyumni tashlashi bir tomonlama bitim deb tan olinmaydi, chunki bu amaliy harakatlar bo'lib, ularni huquqiy natijaga erishishga qaratilgan deb hisoblash mumkin emas.

Ko'proq asosli deb mulk huquqidan voz kechish bir tomonlama bitim hisoblanadi degan qarash hisoblanadi.

Avvalo, mulk huquqidan voz kechish ma'lum huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradigan huquqiy faktdir. Voz kechish amalga oshirilgan vaqtdan boshlab har qanday uchinchi shaxs mulk egasi voz kechgan mulkni o'z mulkiga olish imkoniyatiga ega bo'ladi [6, 146-147 b.]. Mulk egasining voz kechishi ixtiyoriy huquqiy akti ifodalaydi. Amaldagi FKda mulk huquqidan voz kechishga oid norma mavjud emas. Mulk egasining mulkdan voz kechishi nafaqat ixtiyoriy harakat, balki aniq maqsad bilan amalga oshiriladi — mulk huquqi munosabatini bekor qilish mulk egasining ushbu mulkka bo'lgan huquq va majburiyatlaridan voz kechishi hisoblandi. Shuning uchun uni huquqiy akt sifatida baholash lozim. Huquqiy aktlarga ma'muriy aktlar va bitimlar kiradi. Mulk egasining voz kechishini ma'muriy akt deb baholab bo'lmaydi va uni huquqiy bitim deb hisoblash uchun asoslar mavjud.

FK 101-moddasiga ko'ra, bitimlar deb fuqaro va yuridik shaxslarning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini o'rnatish, o'zgartirish yoki tugatishga qaratilgan harakatlari tan olinadi. Avval ta'kidlanganidek, mulk huquqidan voz kechish mulk munosabatlarini tugatishga, shuningdek, shaxsning mulk egasi sifatidagi mavjud huquq va majburiyatlarini yakunlashga qaratilgan.

Muhokama. Ma'lumki, bir tomonlama bitimlar deb qonun, boshqa huquqiy aktlar yoki tomonlar kelishuvi bo'yicha faqat bir tomonning irodasini bildirish kifoya qiladigan bitimlar tan olinadi. Mulk egasining voz kechishi haqiqatan ham bir tomonlama bitim hisoblanadi, chunki faqat mulk egasi o'z mulkidan voz kechish harakatlarini amalga oshiradi. Biroq, voz kechish orqali maqsad qilingan huquqiy oqibatlarga erishish uchun faqat mulk egasining irodasini bildirish yetarli emas

Mulk huquqidan voz kechish bu huquqni boshqa shaxsga o'tishi bilan bog'langan bo'lishi kerak. Chunki shubhasiz bu mulkni egasiz qolishidan, tashlab qo'yilishidan saqlaydi, ya'ni mulkka g'amxo'rlik qiladigan shaxs bo'lmagan holatni oldini oladi. Huquqni boshqa shaxsga o'tishi ham ixtiyoriy akt hisoblanadi. Shunday qilib, voz kechishning huquqiy natijasiga erishish uchun faqat voz kechayotgan mulk egasining emas, balki mulkni qo'lga kiritayotgan boshqa shaxsning ham irodasini ifodalashi kerak. Shu munosabat bilan, mulkdan voz kechuvchi va mulkni oluvchi shaxslarning ixtiyoriy harakatlarini qanday baholash masalasi yuzaga keladi.

Mulk egasining voz kechishi va keyinchalik huquqni boshqa shaxsga o'tishi ikki tomonlama bitim sifatida tan olinmaydi. Ikki tomonlama bitimning (shartnomaning) majburiy belgisiga faqat ikki subyektning irodasini bildirish emas, balki tomonlarning irodalari kelishilgan bo'lishi kerak (FK 102-moddasi 3-qism). Mulkdan voz kechish va mulk huquqini boshqa shaxsga o'tishi jarayonida har ikki ixtiyoriy harakat ma'lum huquqiy natijaga erishishga qaratilgandir. Chunki har biri uchun turlicha, mulk egasi uchun o'z huquqini bekor qilishi, boshqa shaxs uchun mulkni qo'lga kiritishi, biroq bu harakatlar kelishilgan emas, bir tomonlama irodalar bo'lib, ikki tomonlama bitim shartnoma hisoblanmaydi.

Shu bilan birga, voz kechishni, o'z-o'zidan mavjud mulk huquqi munosabatini tugatadigan bir tomonlama bitim deb hisoblash ham mumkin emas, chunki mulk huquqining voz kechish payti mulk huquqidan voz kechish, mulk huquqi boshqa shaxsga o'tmaguncha, mulk egasining ushbu mulkka bo'lgan huquq va majburiyatlari bekor bo'lmaydi.

Qabul qilish lozimki, mulk huquqidan voz kechish natijasida mulk huquqini tugatish uchun murakkab huquqiy tarkib talab qilinadi, uning elementlari sifatida mulk egasining voz kechishi va mulk huquqi boshqa shaxsga o'tishini hisobga olish kerak.

Huquqiy tarkib deb huquqiy norma tomonidan belgilangan huquqiy oqibatlar yuzaga kelishi uchun zarur bo'lgan huquqiy faktlar tizimi tushuniladi. Tarkib elementi huquqiy fakt (voqea yoki harakat) hisoblanadi va faktik tarkib bilan alohida huquqiy fakt o'rtasidagi munosabat umumiy va alohida munosabatiga mos keladi. Shu bilan birga, yana bir bor ta'kidlash lozimki, huquqiy norma bilan belgilangan oqibat faqat to'liq shakllangan tarkib, ya'ni tarkib elementlarining barchasi birgalikda mavjud bo'lganida yuzaga keladi; tarkibning har bir elementi alohida holatda bunday natijaga olib kelmaydi.

Sobiq mulkdorning voz kechishiga har qanday yuridik ahamiyatni inkor etish to'g'ri bo'lmas edi. Voz kechishning o'zi mulk huquqining bekor bo'lishi kabi huquqiy natijani ta'minlamaydi, biroq voz kechish mavjud bo'lmagan taqdirda boshqa shaxsning ushbu huquqni egallashi ham mumkin emas.

Mulkdan voz kechayotgan shaxsning mulk huquqi faqat butun huquqiy tarkib to'liq shakllanganidan keyingina tugaydi. Shu bilan birga, ushbu mol-mulkka nisbatan mulk huquqi boshqa shaxs tomonidan egallangunga qadar mulkdor o'z huquq va majburiyatlarini saqlab qoladi, shu sababli u istalgan vaqtda bu mol-mulkni yana o'z egaligiga, foydalanishiga va tasarrufiga qabul qilishga haqli. Biroq, u mazkur mol-mulk keltirgan zarar uchun javobgar bo'ladi hamda uni saqlash bilan bog'liq xarajatlarni ham o'zida saqlaydi. Bu qoida shubhasiz shuni tasdiqlaydiki, faqat yuridik faktlarning birgalikda mavjudligi huquq normasida nazarda tutilgan huquqiy oqibatlarni vujudga keltiradi. bu holda mulkdor voz kechgan mol-mulkka nisbatan mulk huquqi bekor bo'ladi.

Oldin ta'kidlangan mulk egasining buyumlarni tashlab yuborish orqali voz kechishi bir tomonlama bitim emas, chunki bu amaliy, huquqiy bo'lmagan harakat bo'lib, huquqiy natijaga erishishga qaratilgan deb hisoblanmaydi degan e'tiroz yetarlicha asosli emas. Huquqiy aktning amalga oshirayotgan shaxsning harakatlari maqsadga yo'naltirilgan deb tushuniladi, ya'ni shaxs o'z harakati qanday natija berishini tasavvur qilishi kerak, ammo subyekt huquqiy oqibatni barcha tafsilotlari bilan tasavvur qilishi shart emas. Shu munosabat bilan, muhokama qilinayotgan masalaga nisbatan shuni aytish mumkinki, buyumlarni tashlab yuborish orqali subyekt, harakatining barcha huquqiy oqibatlarini to'liq tasavvur qilmasa ham, mulk huquqi munosabatlarini bekor qilish, ushbu mulk bo'yicha mulk egasining huquq va majburiyatlaridan voz kechish maqsadini ko'zlaydi.

Mulk huquqidan voz kechishni shartli (conditiotacita) deb ataluvchi taxminiy shart ostida amalga oshirilgan bir tomonlama bitim sifatida baholash to'g'ri ko'rinadi. Bu shart bitim tarkibiga kiradi va uning zaruriy xususiyatini tashkil etadi.

Mulk huquqidan voz kechishni shartli bitim deb tan olib ham bo'lmaydi chunki, mulk huquqining voz kechish uning voz kechish payti bilan bog'liq bo'ladi.

FK 104-moddasi 1-qismiga muvofiq, agar taraflar huquq va burchlarning kelib chiqishini yuz berishi yoki bermasligi noma'lum bo'lgan holatga bog'liq qilib qo'ysalar, bitim kechiktirish sharti bilan tuzilgan hisoblanadi. Shunday qilib, shartli (suspensiv) bitim — bu faqat shunday sharoit yuzaga kelganda huquqiy oqibatlar keltiradigan bitimdir. Demak, mulkdorning mulkdan voz kechishi haqidagi irodasi bilan shartli bitim tuzilmasi orasida tashqi o'xshashlik mavjud. Chunki mulk egasining voz kechishi faqat boshqa shaxs ushbu mulk huquqini qo'lga kiritganda mulk huquqining tugashiga olib keladi, ammo bu shaxsga nisbatan holat noma'lum u yuz beradimi yoki yo'q noaniqligicha qoladi. Shunga ko'ra, voz kechishni shartli bitim deb hisoblash mumkin emas. Asoslash mumkin bo'lgan jihatlar quyidagicha. Birinchidan, bitimdagi

shart har doim tomonlardan kelib chiqadi, bu “amal qilayotgan shaxslarning erkin qarori” hisoblanadi, holbuki voz kechish orqali mulk huquqining bekor bo‘lishi uchun mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tishi kerak. Ikkinchidan, bitimdagi shart har doim “tasodifiy”, “qo‘shimcha” payt bo‘lib, bitimda bo‘lishi yoki bo‘lmasligi mumkin va agar tomonlar uni belgilamasa ham bitim huquqiy kuchga ega.

Natijalar. Shu munosabat bilan ta’kidlash joizki, tabiatan o‘zi noma’lum holatga bog‘liq bo‘lgan va yuridik kuchi ana shu holatga qarab belgilanadigan bitimlar mavjud.

Bu holatlar *condiciones tacitae* (oldindan aytilmagan shartlar) deb ataladi, biroq bunday oldindan aytilmagan shartlar haqiqiy shartlar hisoblanmaydi, shuning uchun ular mavhum (sukut saqlangan) shartlar deb yuritiladi. Sukut saqlangan shartlar bitimlar sharti sifatida FKning 104-moddasida belgilangan ma’nodagi shartlar hisoblanmaydi.

Bir tomonlama bitim sifatida voz kechishni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Voz kechish — mulk huquqini bekor qilishga qaratilgan bir tomonlama bitim.
2. Mulk huquqidan voz kechish faqat shartsiz bo‘lishi mumkin. Mulk egasining mulkdan voz kechish bo‘yicha harakatlari, agar u ushbu mulk bo‘yicha qandaydir huquqlarni saqlab qolmoqchi bo‘lsa, mulk huquqidan voz kechish sifatida tan olinmaydi va mulk huquqini tugatish asosini tashkil etmaydi.
3. Bu muqobil to‘lov nazarda tutilmaydigan bitim.
4. Voz kechish boshqa shaxslarni bir tomonlama vakolatlantiruvchi bitim hisoblanadi, chunki u har bir shaxsni passiv tarzda tiyilib turish majburiyatidan ozod qiladi va mulkdor voz kechgan mol-mulkka istalgan shaxs tomonidan egalik qilish imkonini beradi.

Mulk huquqidan voz kechishni bir tomonlama majburiyat yuklovchi bitim sifatida baholangan yuritilgan yuridik adabiyotlardagi yondashuv bilan kelishish qiyin [7, 59-64 b]. Ma’lumki, bir tomonlama bitimlar bir tomonlama vakolatlantiruvchi bo‘lishi mumkin, ya’ni bunday bitimlar orqali “shaxs o‘zini o‘zi majbur qiladi va shu tariqa boshqa shaxsga (shaxslarga) muayyan subyektiv huquqni beradi.” yoki bir tomonlama majburiyat yuklovchi, “ular natijasida boshqa shaxslar uchun majburiy bo‘lgan huquqiy sohada o‘zgarishlar yuz beradi”. Bir tomonlama majburiyat yuklovchi bitimlar boshqa shaxslarning huquqiy sohasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi, ularga ma’lum ijobiy majburiyat yuklaydi yoki ma’lum huquqdan mahrum qiladi, yoki bunday to‘g‘ridan-to‘g‘ri salbiy ta’sirni o‘zida aks ettirmay, har bir kishi uchun salbiy majburiyatlar yuklaydi. Mulkdorning mulkdan voz kechishi uchinchi shaxslarga salbiy huquqiy oqibat keltirmaydi. Mulk huquqidan voz kechish orqali mulkdor boshqa shaxs(lar)ga hech qanday majburiyat yuklamaydi (na ijobiy, na salbiy), hech kimni mavjud huquqidan mahrum qilmaydi, aksincha, barcha uchinchi shaxslardan passiv chekinish majburiyatini olib tashlaydi va har bir kishiga mulkni egallash imkoniyatini beradi. Va garchi voz kechishda mulk egasining irodasi o‘z huquqini bekor qilishga qaratilgan bo‘lsada, boshqa shaxsga mulk huquqini berishga emas (mulk huquqini topshirishdan farqli ravishda), qonun voz kechish bilan istalgan shaxsning ushbu mulk huquqini qo‘lga kiritish imkoniyatini bog‘laydi.

5. Mulk huquqidan voz kechish, jumladan yer uchastkasidan ixtiyoriy ravishda voz kechilganda qonunchilikda uning tartib va shartlari belgilanmagan. Umuman yer uchastkasiga bo‘lgan huquqdan voz kechilganda voz kechish ham yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni ro‘yxatda o‘tkazuvchi organ tomonidan qabul qilinishi lozim. Masalan,

RF Yer kodeksining 53-moddasiga muvofiq, yer uchastkasiga bo'lgan mulk huquqidan voz kechish mulkdor tomonidan bunday voz kechish to'g'risidagi arizani huquqni ro'yxatga oluvchi organga taqdim etish orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun u ro'yxatga olish organi tomonidan qabul qilinishini talab qiluvchi bir tomonlama bitim sifatida tan olinishi lozim. Boshqa mulk bo'yicha voz kechish esa boshqa shaxslar tomonidan qabul qilinishni talab qilmaydigan bitimdir. Bunday bitimlar, ma'lum shaxslar yoki hatto noma'lum shaxslar doirasiga oid huquqiy oqibatlarni ularning qabul qilishiga qaramay yuzaga keltiradigan bitimlar hisoblanadi.

6. Voz kechishni tasarruf etuvchi bitim sifatida tan olish lozim, chunki u majburiyat munosabatlariga emas, balki mutlaq huquqiy munosabatlar sohasidagi oqibatlarga ya'ni, bir shaxsning mulk huquqini bekor bo'lishi va boshqa shaxsda ushbu huquqning vujudga kelishiga olib keladi.

Shunday qilib, mulk huquqidan voz kechish huquqiy tabiatiga ko'ra mulk huquqini bekor qilishga qaratilgan bir tomonlama bitim hisoblanadi. Mulk huquqining tugashi esa murakkab faktlar tarkibi ya'ni, mulkdorning voz kechishi va ushbu mol-mulkka nisbatan mulk huquqining boshqa shaxs tomonidan egallanishi fakti bilan mavjud bo'lishi bilan bog'liq. Mulk egasining mulkdan voz kechishi faqat uning huquqini bekor qilish imkoniyatini yaratadi, bu esa faqat ushbu mulk huquqi uchinchi shaxsga o'tganda va shu paytda amalga oshadi. Mulk egasining voz kechishi huquqni bekor qilish asosini tashkil qiladi, mulk tashlab ketilganidan keyin uchinchi shaxs tomonidan qo'lga kiritilishi esa, mulk huquqini bekor qilish usuli sifatida tan olinishi lozim.

Bunday yuridik konstruksiya, shu bilan birga, voz kechishni mulk huquqini bekor qiluvchi yuridik fakt sifatida, ya'ni mulk huquqining tugashi uchun mustaqil asos sifatidagi ahamiyatidan mahrum qilmaydi. Mulkdorning voz kechishini faqat shartli ravishdagina huquqni bekor qiluvchi yuridik fakt deb bo'ladi, degan fikrga qarshi ravishda, uning haqiqiy huquqni tugatuvchi fakt bo'lganligi saqlanib qoladi. Voz kechishni shartsiz huquqni tugatishga olib keluvchi huquqiy fakt sifatida tan olishni asoslash uchun quyidagilarni keltirish mumkin. Voz kechish amalga oshirilgan paytdan boshlab mulkdorning huquqiy maqomi muayyan xususiyatlarga ega bo'ladi. O'z huquqidan voz kechib, uni kelgusida egallashni xohlamasdan, hatto mulkka faktik egalikni yo'qotgan holda ham, unda baribir mulkdorlik majburiyati davom etadi. Mol-mulkni saqlash, soliq va yig'implarni to'lash, mol-mulkning tasodifiy halokati yoki zararlanishi xavfini zimmasiga olish, eng asosiysi mulkdor o'zining mulkdorlik ne'matlaridan endilikda foydalanmasa ham mol-mulk uchinchi shaxslarga yetkazgan zararni qoplash majburiyati saqlanib qoladi. Mulk huquqi mulkdor zimmasiga nafaqat moddiy yuk va mas'uliyatnigina, balki ijtimoiy mas'uliyatni ham yuklaydi. Mulkdor bu majburiyatlardan o'z xohishiga ko'ra voz kechishga haqli emas.

Ashyoni uchinchi shaxs tomonidan mulk qilib olinguniga qadar mulk huquqining mulkdorda saqlanib qolishi esa besohib mulk muammosini hal etishga xizmat qiladi va mulkning saqlanib qolishini ta'minlashga qaratilgandir. Mulkdor o'zining mulkini amaldagi qonunchilikda belgilangan talab va qoidalarga rioya etgan holda, uchinchi shaxslarga zarar yetkazilishi ehtimolini bartaraf etgan holda, tegishli tarzda saqlashi shart, shuningdek zarur va oqilona ehtiyot choralarini ko'rishi lozim. Agar shuning o'ziga qaramay, mulk tomonidan zarar yetkazilsa, bunday zarar uchun javobgarlik to'liq hajmda mulkdor zimmasiga yuklanadi.

Uchinchi shaxslar va jamiyatning o'zi hamda atrof-muhit manfaatlarini himoya qilish maqsadida "mulk huquqidan voz kechish ushbu mol-mulkka nisbatan mulkdorning huquq va majburiyatlari boshqa shaxs unga nisbatan mulk huquqini qo'lga kiritgunga qadar bekor qilishiga olib kelmaydi" degan qoidaning asosiy ahamiyati ham aynan shunda deb hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, ushbu qoida to'laqonli ravishda asoslanishi ijtimoiy jihatdan shartlangan va adolatli hisoblanadi.

Qiymati past bo'lgan mol-mulk (maishiy chiqindilar, turli xil tashlanmalar)ga nisbatan mulkdor undan voz kechgan paytdan boshlab mulk huquqi tugaydi, degan taassurot uyg'onishi mumkin, ammo amalda bu bunday emas. amaliyotda mahalliy hokimiyat organlari organi tomonidan shahar va boshqa aholi punktlari hududlarida maishiy chiqindilarni yig'ish uchun konteyner maydonchalarini ajratishi, munitsipal tuzilmaning besohib ashyolarga mulk huquqini egallash istagidan dalolat beruvchi harakatlar sifatida baholanishi mumkin. Bunday vaziyatda fuqaroning tashlab yuborilgan ashyolarga bo'lgan mulk huquqidan voz kechishi unga tegishli mol-mulkni saqlash yukining tugash paytini belgilaydi, yordamchi belgi esa, ushbu ko'char ashyolarga nisbatan munitsipal mulk huquqining vujudga kelishi vaqtidir.

Shu masalani hal qilish uchun quyidagilarni hisobga olish zarur. Ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilari ustidan mulk huquqi O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risida"gi qonunning 4-moddasiga muvofiq, chiqindi qaysi xom ashyo, materiallar, xomaki mahsulotlar, boshqa buyum yoki mahsulotlardan, shuningdek tovarlardan (mahsulotlardan) foydalanish natijasida hosil bo'lsa, chiqindilarga bo'lgan mulk huquqi shularning egasiga tegishli bo'ladi.

Agar chiqindilar mulkdor tomonidan tashlab yuborilgan yoki mulk huquqidan voz kechish maqsadida boshqa tarzda qoldirilgan bo'lsa, ushbu tashlangan chiqindilar joylashgan yer uchastkasining, suv havzasining yoki boshqa obyektning mulkdori, undan foydalanuvchisi yoki unda egalik qiluvchi shaxs ulardan foydalanishga kirishish yoxud ularni mulkka aylantirishni tasdiqlovchi boshqa harakatlarni amalga oshirish orqali ularni o'z mulkiga o'tkazishi mumkinligi masalasi "Chiqindilar to'g'risida"gi qonunda aks etmagan. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-oktyabrdagi 787-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasi obyektlarini joylashtirish va ulardan foydalanish hamda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish qoidalari"ning 12-bandida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ko'magida xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati, professional boshqaruv tashkiloti yoki tegishli hududda yashovchilarning bevosita murojaati bo'yicha chiqindilarni to'plash shoxobchalarini joylashtirish joylarini aniqlash bilan bog'liq masalalarni hal qilishlari belgilangan. Shahar va boshqa aholi punktlarida konteyner maydonchalari mahalliy hokimiyat tomonidan ajratiladi va ular ushbu organning mulkidagi yer maydonlarida joylashadi. Shu bilan birga, maydonchalarni ajratish ularning mulkiga aylanishi sifatida qabul qilinishi qiyin. Konteyner maydonchasidan olib chiqilgan chiqindilar kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan poligonlarga tashlanadi, ammo bu tashkilotlar chiqindilarni o'z mulkiga aylantirish maqsadida harakat qilmaydi, ular faqat xizmat shartnomasi asosida chiqindilarni tashiydi, mulk huquqi ularga o'tmaydi. Chiqindilar poligonlarga yetkazilgach, ular mahalliy hokimiyat mulkiga kiradi. Shu bois, xususiy mulk huquqidan voz kechish va chiqindilar ustidan mahalliy hokimiyat mulk huquqi paydo bo'lishi payti chiqindilar poligon yoki boshqa ajratilgan obyektga yetkazilgan payt hisoblanadi.

Mulk huquqidan voz kechish shakli masalasi alohida ko'rib chiqishni talab qiladi. Mulkdorning mulk huquqidan voz kechishi to'g'risida e'lon qilishi yoki mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishdan voz kechganini aniq ko'rsatadigan boshqa harakatlarni amalga oshirishi, bunda ushbu mulk bo'yicha hech qanday huquqni saqlash niyati bo'lmasligi kerak. Ushbu harakat imperativ xususiyatga ega, ya'ni u ishtirokchilarga ma'lum bir xulq-atvor qoidasini belgilaydi va ularning o'zaro munosabatlarini mustaqil tartibga solish imkoniyatini bermaydi. Voz kechish faqat fuqaro yoki yuridik shaxs o'zining mulki hisoblangan ashyoga bo'lgan mulk huquqidan ushbu haqda e'lon qilish yoki undan egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishdan voz kechishini aniq tasdiqlovchi boshqa harakatlarni amalga oshirish orqali voz kechishi mumkin, bunda u ushbu mol-mulkka nisbatan qandaydir huquqlarni saqlab qolish niyatiga ega bo'lmasligi lozim. Shu bilan birga, shaxsning yer uchastkasiga bo'lgan huquqidan voz kechish shakli va tartibi Yer kodeksida ham belgilanishi kerak. Shunga ko'ra, yer uchastkasiga bo'lgan mulk huquqidan voz kechish masalasini ham ko'rib chiqish lozim. Ko'chmas mulkning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini, uning maxsus huquqiy rejimini hisobga olgan holda, voz kechishning alohida tartibi va shakli belgilanishi lozim. Mulk huquqidan voz kechish tartibi va shakllarini ko'char va ko'chmas mulk uchun ajratilishi kerak. Mulk huquqidan voz kechish shakllariga oid qoidalari ko'char mulkka nisbatan qo'llanilishi mumkin. Bunday mulk huquqidan mulkdor e'lon qilish orqali yoki boshqa harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan voz kechishi mumkin. Ushbu harakatlar amalda konklyudent harakatlardir, masalan, mulkdor mulkini tashlashi yuborishi, uni chiqindixonaga tashlab ketishi mumkin va hokazo. Ko'char mol-mulkka nisbatan voz kechishni amalga oshirish shaklida qat'iy talabning mavjud emasligi to'liq asoslidir, zero mulkdorning faktik xatti-harakatlari (ashyoni tashlab yuborishi, qoldirib ketishi) uning niyatini boshqalar uchun yetarlicha ravshan ifoda etadi va bundan tashqari tasdiqni talab qilmaydi.

Mulkdorning ko'chmas mol-mulkni qoldirib ketishi, uning "qarovsiz holda tashlab qo'yilishi" esa ham mulk huquqidan voz kechishni, ham huquqni amalga oshirishdan voz kechishni anglatishi mumkin bo'lib, bu holatlar turlicha huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Yer uchastkasiga bo'lgan mulk huquqidan voz kechish faqat ushbu haqdagi tegishli arizani ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni va u bilan bog'liq bitimlarni davlat ro'yxatiga oluvchi organga taqdim etish shaklida amalga oshiriladi. Yer uchastkasiga bo'lgan mulk huquqi ushbu huquqning bekor bo'lganligi to'g'risidagi davlat ro'yxatiga olingan sanadan amalga oshiriladi.

Xulosa. Mulk huquqidan voz kechish masalasini tadqiq etish quyidagi asosiy xulosalarga kelishga imkon beradi:

Birinchidan, mulk huquqidan voz kechish mulk huquqini bekor qilishning mustaqil asosi hisoblanadi va amaldagi Fuqarolik kodeksida alohida qonuniy aks ettirishni talab qiladi.

Ikkinchidan, voz kechishni mulk huquqini bekor qilishga qaratilgan shartsiz, bir tomonlama, vakolatlantiruvchi va tasarruf etuvchi bitim sifatida tasniflash lozim.

Uchinchidan, mulk huquqining to'liq bekor bo'lishi uchun murakkab huquqiy tarkib zarur bo'lib, unga mulkdorning voz kechishi va boshqa shaxs tomonidan mulk huquqini egallash kiradi.

To'rtinchidan, ko'char va ko'chmas mulkdan voz kechish turli shakl va tartibda amalga oshirilishi kerak. Ko'char mulkdan voz kechish e'lon qilish yoki konklyudent harakatlar orqali, ko'chmas mulkdan voz kechish esa faqat yozma shaklda va davlat ro'yxatidan o'tkazish orqali amalga oshirilishi lozim.

Beshinchidan, voz kechishga qaramay, mulk huquqi boshqa shaxsga o'tgunga qadar mulkdor barcha majburiyatlarni, jumladan mulk tomonidan keltirilgan zarar uchun javobgarlikni saqlab qoladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Дождев Д.В. Римское частное право. — М.: Норма, 2002. — С. 248–249.
2. Buckland, W.W. A Textbook of Roman Law. Cambridge: Cambridge University Press, 1963, pp. 209–210.
3. Толстой Ю.К. Понятие права собственности // Проблемы гражданского и административного права: сб. ст. / отв. ред: Черепяхин Б.Б., Иоффе О.С., Толстой Ю.К. Л., 1962. С. 191.
4. Красавчиков О.А. Указ. соч. С.67.
5. Скловский К.И. Применение гражданского законодательства о собственности и владении. Практические вопросы. М., 2004. С. 202.
6. Гражданское право: учебник в 3 т. / под ред. А.П. Сергеева. М., 2008. Т. 1. С. 123-124.
7. Алексеев С.С. Односторонние сделки в механизме гражданско-правового регулирования// Антология уральской цивилистики. 1925-1989: сб. статей. М., 2001. С. 59-64.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).